

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Ro'yxatga olindi:
№ BD 33
2025 yil 18 avgust



**GEOMORFOLOGIYA VA GEOLOGIYASI ASOSLARI
FANINING O'QUV DASTURI**
(kunduzgi, kechki)

Bilim sohasi:

500 000 - Tabiiy fanlar, matematika, statistika

Ta'lim sohasi:

530 000 – Fizika va tabiiy fanlar

Ta'lim yo'nalishi:

60530200 – Geografiya

Samarqand – 2025

Fan/mavzu kodi GA1106		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	Kreditlar 6	
Fan/mavzu turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 5/4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Geomorfologiya va geologiyasi asoslari		72 (36/36)	108	180
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga geomorfologiya va geologiya sohalarida zamonaviy ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, meliorativ tadbirlarni va gidrotexnik inshootlarning loyihasini tuzish, ularni qurish va ekspluatatsiya qilish ishlarida bajariladigan geomorfologik, geologik hamda boshqa usullar texnikasi bilan tanishtirish, tadqiqot va qidiruvdan olingan ma'lumotlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatishdir.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarga Yerning shakli, o'lchamlari, tuzilishi, tarkibi, harakati, rivojlanish bosqichlarini; geologik jarayonlar va ularning Yer relyefining hosil bo'lishidagi o'rnini; Yerning relyefi, relyef elementlari, shakllari va turlarini; relyef turlarining yer yuzasida taqsimlanishi qonuniyatlarini; ularni turli gidrologik tadqiqotlarni bajarishda hisobga olishni; litosfera va unda sodir bo'ladigan endogen geologik jarayonlar, ularni relyef hosil qilishdagi ahamiyatini o'rgatish va ularda to'plangan bilimlarni amaliyotda qo'llay bilish bo'yicha malaka va tajriba hosil qilishdan iborat.</p> <p>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>“Geomorfologiya va geologiyasi asoslari faniga kirish“</p> <p>Geomorfologiya, geologiya asoslari bilan” faniga kirish. Geomorfologiya, geologiya asoslari bilan fanining o'zaro bog'liqligi, tarmoqlari va rivojlanish tarixi. Geomorfologiyaning asosiy tushunchalari. Fanning maqsadi va vazifalari. Fanning obyekti va predmeti.</p> <p>Yer tuzilishi haqida umumiy ma'lumotlar</p> <p>Litosfera va Yer po'stining tuzilishi. Cho'kindi, granit va bazalt qatlamlar. Yer po'stining rivojlanish qonuniyatlari. Platforma, geosinklinal, qalqon, antikliz, sinkliz, plita tushunchalari va ularning Yer shari relyefida aks etishi. Litosfera plitalari.</p> <p>Yer sharining koinotda tutgan o'rnini. Osmon yoritgichlari haqida tushuncha. Quyosh tizimi</p> <p>Yer sharining koinotda tutgan o'rnini. Osmon yoritgichlari haqida tushuncha. Quyosh tizimi haqida tushuncha berish.</p> <p>Minerologiya. Mineral va tog' jinslari haqida tushuncha. Tog' jinslarining genetik turlari</p> <p>Minerologiya nimani o'rganadi. Kristall panjaralar, kristallografik shakllar. Minerallar va tog' jinslari haqida tushuncha. Konlar va foydali qazilma konlari haqida tushuncha.</p> <p>Relyef hosil qiluvchi (geodinamik) jarayonlar. Endogen geologik jarayonlar.</p> <p>Endogen geologik jarayonlar haqida tushuncha. Endogen jarayonlar va ularning turlari. Endogen jarayonlarni vujudga keltiruvchi manba. Endogen jarayonlar tasnifi.</p> <p>Qirg'oqlar va okean tubi relyefi.</p> <p>Qirg'oq, qirg'oq chizig'i, abraziya, rias, fiord, dalmatin, shxera, panjasimon, klif, ungur (to'lqin ini, kamgak), plyaj, bench, bar, suv osti qiya akkumulyativ terrasalar. Dunyo okeani, abraziya jarayonlar, suv ko'tarilishi va qaytishi, materik sayozligi, materik yonbag'ri, materik etagi, abissal tekisliklar.</p>				

Magmatizm va metamorfizm jarayonlari.

Magmatizm. Intruziv va effuziv magmatizmi. Effuziv magmatizm – vulkanizm. Vulqonlar va ularning turlari. Magmatik jarayonlar bilan bog‘liq qazilma boyliklarning hosil bo‘lishi haqida.

Vulkanlar haqida tushuncha va ularning mahsulotlari. Effuziv va intruziv jinslar. Ular bilan bog‘liq holda shakllangan foydali qazilma boyliklar

Vulkanlar haqida tushuncha va ularning mahsulotlari to‘g‘risida ma’lumotlar berish. Effuziv va intruziv jinslar va ular bilan bog‘liq holda shakllangan foydali qazilma boyliklarning paydo bo‘lishi haqida bilimlar berish.

Zilzila. Seysmik va aseysmik hududlar geologiyasi

Tektonik harakatlarning xillari. Yerning asosiy geostrukturalari. Geosinklinal va platforma viloyatlari va ularning unsurlari. Litosfera tektonik plitalari. Seysmik mintaqalar. Falokatli zilzilalar tarixi.

Ekzogen geologik jarayonlar haqida tushuncha. Nurash va uning geologik ahamiyati

Ekzogen geologik (nurash) jarayonlar. Ekzogen geologik (nurash) jarayonlar natijasida paydo bo‘lgan tog‘ jinslari va foydali qazilma boyliklari hamda ularning ahamiyati.

Suffozion jarayonlari. Karst jarayonlari va relyef shakllari

Suffoziya tushunchasi, uning karst jarayonlari bilan farqi. Suffozion jarayonlarga moyil tog‘ jinslari. Suffozion jarayonlar natijasida kelib chiqqan relyef shakllari. Suffozion jarayonlarning salbiy oqibatlari.

Karst tushunchasi. Karst hodisasining hosil bo‘lishidagi geologik va tabiiy geografik omillar. Karst tiplari: ochiq va yopiq, ularning morfologiyasi, geografiyasi. Karst jarayonlari va ularni o‘rganishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Flyuvial karst. Eroziya karst. Karstlar menejmenti. G‘or sistemasi. Odamlar va g‘or. O‘zbekiston g‘orlari.

Gidrosferaning geologik faoliyati. Okean va dengizlarning geologik faoliyati

Dengiz va okeanlarning geologik faoliyati natijasida paydo bo‘lgan tog‘ jinslari va foydali qazilma boyliklari hamda ularning ahamiyati.

Daryolarning geologik faoliyati. Yer osti suvlarining geologik faoliyati. Ko‘l va botqoqliklarning geologik faoliyati

Daryolar suvlarining geologik faoliyati natijasida paydo bo‘lgan tog‘ jinslari va foydali qazilma boyliklari hamda ularning ahamiyati. O‘zan eroziyasi, jarlanish, suffoziya. Yer osti suvlarining geologik faoliyati natijasida paydo bo‘lgan tog‘ jinslari va foydali qazilma boyliklari hamda ularning ahamiyati. Karstlar. Ko‘l va botqoqliklarning geologik faoliyati o‘rganish. Ko‘l va botqoqliklarning geologik faoliyati natijasida paydo bo‘lgan tog‘ jinslari va foydali qazilma boyliklari hamda ularning ahamiyati. Cho‘kindi tog‘ jinslari aniqlash.

Muzliklarning geologik faoliyati, tog‘ muzlikliklari. Quyi muzliklar va abadiy do‘ngloq yerlarning geologik faoliyati

Muzlik geologik faoliyati. Tog‘ muzliklarining geologik faoliyati natijasida paydo bo‘lgan tog‘ jinslari va foydali qazilma boyliklari hamda ularning ahamiyati. Morenalar.

Shamolning geologik faoliyati

Shamolning geologik faoliyati. Shamollarining geologik faoliyati natijasida paydo bo‘lgan tog‘ jinslari va foydali qazilma boyliklari hamda ularning ahamiyati

Paleontologiya va Paleogeografiya asoslari

Paleontologiya asoslari niamni o'rganadi? Paleontologiya fani haqida asosiy tushunchalar. Paleontologiya va Paleogeografiyning boshqa fanlar bilan aloqasi. Paleozoologiya, paleobotanika haqida tushuncha. Toshqotgan xayvonot va o'simliklar dunyosining saqlanish holatlari va ularning geologik hamda paleogeografiya sohalaridagi xizmati. Fasiya va formasiyalar haqida tushuncha.

Stratigrafiya. Yerning geologik rivojlanish tarixi. Tog' ko'tarilish bosqichlari.

Stratigrafiya, geoxronologiya haqida tushuncha. Geologik vaqt hisobi. Yerning geologik rivojlanish tarixi. O'zbekistonning geologik rivojlanish tarixi. O'zbekistonning geologik tuzilishi. Arxey erasi rivojlanish tarixi. Proterozoy erasi geologik tarixi. Proterozoy erasi rel'yefi, flora va faunasi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Geomorfologiya va geologiyasi asoslari fanining asosiy tushunchalari.
2. Yer po'sti va Yerning ichki tuzilishi chizmasini ishlash va tahlil qilish.
3. Litosfera plitalari harakatini karta yordamida o'rganish
4. Geoxronologik jadvalni chizish va tahlil qilish.
5. Relyef shakllari va elementlarini aniqlash.
6. Berilgan yo'nalish bo'yicha relyef profilini tuzish.
7. Tog' jinslari va minerallar bilan tanishish.
8. Endogen jarayonlar va ularning turlari
9. Gorst, graben, antiklinal, sineklinal tektonik strukturalarni chizish.
10. O'zbekistonning geologik kartasini chizish va tahlil qilish.
11. Ekzogen jarayonlar turlari va tasnifi.
12. Vulqonlar jadvalini ishlash va kartasini chizish.
13. Magmatizm, metamorfizm jarayonlari.
14. O'zbekistonning geomorfologik kartasini chizish va tahlil qilish.
15. Flyuvial jarayonlar natijasida hosil bo'lgan relyef shakllarini chizish va ularning tahlili.
16. Fizikaviy, kimyoviy va biologik nurash. Suffozion va karst hodisalarining hosil bo'lishidagi geologik va tabiiy geografik omillar.
17. Eol va glyatsial jarayonlar natijasida hosil bo'lgan relyef shakllarini chizish va ularning tahlili.
18. Tog' jinslari va minerallar bilan tanishish maqsadida geologiya muzeyiga tashrif buyurish..

Amaliy mashg'ulotlarda mavzularga oid amaliy topshiriqlar bajarish, jadval va diagrammalar to'ldirish, atlas va yozuvsiz xaritada amaliy topshiriqlar bajarish, masalalar yechish, amaliy kuzatish, o'lchash, meteorologik asboblardan foydalanish bilan ishlash amallari bajariladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:

Yer po'sti va Yerning ichki tuzilishi chizmasini ishlash va tahlil qilish.
Geoxronologik jadvalni chizish va tahlil qilish.
Berilgan yo'nalish bo'yicha relyef profilini tuzish.
Tog' jinslari va minerallar strukturasini chizish.
Rift zonalari va geosinklinal o'lkalarni xaritaga tushirish.
Magmatizm, metamorfizm jarayonlari.
Daryo terrasalari tuzilishi chizmasini ishlash va tahlil qilish.
Morenalar. Muzloq (to'ng) yerlar tushunchasi.

	<p>Dengiz, okean qirg'oqlari, ularning hosil bo'lishi va o'zgarishi</p> <p>Asosiy tektonik yer yoriqlari xaritasi bilan ishlash.</p> <p>O'zbekistonni seysmik rayonlashtirish xaritasi bilan ishlash.</p> <p>To'rtlamchi davr yotqiziqlari xaritasi bilan ishlash.</p>
3.	<p>V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Talaba bilish kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Geomorfologiya va geologiyasi asoslari fanining maqsad va vazifalarini, rivojlanish tarixi, magmatizm va uning turlari, tektonik xarakatlar va ularning turlarini, seysmik jarayonlar bo'yicha asosiy shakllari haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi; (bilim)</i> • Talaba tog' jinslarini kelib chiqishiga ko'ra turlarni, nomlarini, foydali qazilmalarini aniqlay olish, qo'llash, tahlil qilish va prognoz qilish kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi; (<i>ko'nikma</i>). • Talaba dalada tog' jinslarini turlarini, fizik va kimyoviy xossalarini, nurash darajasini, foydali qazilmalarini nomini topish, ularni kartaga tushirish, minerallarning mexanik tarkibi, fizik va suv xossalarini mustaqil ravishda aniqlay olish va kartaga tushira olish hamda ularni tahlil qilish to'g'risida aniq <i>malakalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)</i>
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • <i>ma'ruzalar; interfaol, keys stadi, munozara</i> • <i>interfaol keys-stadilar;</i> • <i>diologik yondoshuv</i> • <i>SWOT tahlili</i> • <i>Wenn diagrammasi</i> • <i>Bliz so'rov</i> • <i>nilufar guli</i> • <i>baliq skleti</i> • <i>kim chaqqon</i> • <i>blis so'rov</i> • <i>blis test va boshqalar</i>
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.</p>
6.	<p>VIII. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Nizomov A va boshq. "Geologiya". O'quv qo'llanma T.: "Info Capital Group", 2019. 2.Mamatqulov M., Egamov B.Yu. Geologiya va geomorfologiya. Darslik. - T. "VneshInvestProra", 2019. 208 b. 3. Щеглов Д.И., Громовик А.И. Основы геоморфологии. Учебное пособие для вузов. Воронеж Издательский дом ВГУ. 2017 <p>IX. Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b. 2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

	<p>qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.</p> <p>3. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.</p> <p>4. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. - 458 b.</p> <p style="text-align: center;">O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI</p> <p>5. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)</p> <p>6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF - 6108 - son farmoni.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <p>7. http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.</p> <p>8. http://www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.</p> <p>9. http://www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali.</p> <p>10. www.pedagog.uz</p> <p>11. www.apkpro.ru/content/view</p> <p>12. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten</p> <p>13. www.relarn.ru/conf/conf2007</p> <p>14. http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/</p> <p>15. http://www.allmath.ru/</p> <p>16. http://www.ziyonet.uz/</p> <p>17. http://window.edu.ru/window/www.astronet.ru</p> <p>18. t.me/geograflar_kutubxonasi - geografiya faniga oid ilmiy adabiyotlar kanali</p>
7.	Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti o‘quv-uslubiy kengashining 2025 yil “ ____ ” _____ -son bayonnomasi bilan ma’qullangan
8.	<p>Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari:</p> <p>S.R.Mirzaliyev – Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasida assistenti.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>F.A.Xamroyeva - Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasida dotsenti (ichki)</p> <p>A.X.Ravshanov - Sharof Rashidov nomidagi SamDU Geografiya va ekologiya fakulteti dekani (tashqi)</p>

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida 98 o‘rinni egallagan Moskva davlat universitetning

Geografiya fakulteti Geografiya yo'nalishi o'quv dasturi tahlil qilinib, mazkur fan dasturining 9 ta mavzusiga singdirildi.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_1_Geomorfologiya_s_osno_vami_geologii_2021.pdf

Fan dastur Tabiiy fanlar fakultetining 2025-yil 23-apreldagi 2-sonli farmoyish bilan tuzilgan ishchi guruh tomonidan maqullangan.

Tuzuvchi:

S.R.Mirzaliyev

Kafedra mudiri:

F.A.Xamroyeva

Fakultet dekani:

N.Mirzayev

O'quv-ishlar bo'yicha prorektor:

M.Musulmonov



**Samarqand davlat pedagogika instituti “Geografiya” kafedrası assistenti
S.R.Mirzaliyev tomonidan tayyorlangan “Geomorfologiya va geologiyasi
asoslari” o‘quv fan dasturiga**

TAQRIZ

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalardagi islohotlar ta’lim tizimida ham yangidan-yangi izlanishlarni taqozo etmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlar sohasida zamonaviy yondashuvlar asosida shakllanayotgan bilimlar talabalarga chuqur va tizimli tarzda berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan “Geomorfologiya va geologiyasi asoslari” fanining o‘quv dasturi dolzarb mavzularni o‘z ichiga olgan.

Mazkur fan dasturida geomorfologik jarayonlar, relyef shakllanishi, tog‘ jinslarining tuzilishi hamda geologik davrlar bo‘yicha yerning rivojlanish bosqichlari keng qamrovda bayon etilgan. Fanning nazariy va amaliy asoslari zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yoritilgan bo‘lib, talabalarni ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi.

Berilgan metodik tavsiyalar va topshiriqlar orqali talabalarning mustaqil fikrlash va tahlil ko‘nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, fanga oid o‘quv-texnik adabiyotlardan foydalanish imkoniyatlari ham ko‘zda tutilgan.

Ushbu fan dasturi Malaka talablari asosida yozilgan, o‘quv rejalariga to‘liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi 60530200 – Geografiya yo‘nalishi bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fan dasturni nashr etishga loyiq deb hisoblayman.

**Samarqand davlat pedagogika instituti
“Geografiya” kafedrası mudiri:**



dots. F.A.Xamroyeva

**Samarqand davlat pedagogika instituti “Geografiya” kafedrası assistenti
S.R.Mirzaliyev tomonidan tayyorlangan “Geomorfologiya va geologiyasi
asoslari” o‘quv fan dasturiga**

TAQRIZ

“Geomorfologiya va geologiyasi asoslari” fanining o‘quv dasturi geografiya fanining muhim bo‘limlaridan biri sifatida tabiiy jarayonlarni chuqur tushuntirishga yo‘naltirilgan. Fan dasturida geomorfologik shakllanishlar, yer po‘sti tuzilishi, tog‘ jinslarining tasnifi va geologik davrlar haqida zarur bilimlar bayon etilgan.

Ushbu fan bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va seysmik xavfsizlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fan dasturida keltirilgan mavzular amaliy mashg‘ulotlar bilan boyitilgan bo‘lib, talabalarni nazariy bilimlarini mustahkamlash va tajriba asosida chuqurlashtirish imkonini beradi.

Berilgan metodik tavsiyalar va topshiriqlar orqali talabalarning mustaqil fikrlash va tahlil ko‘nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, fanga oid o‘quv-texnik adabiyotlardan foydalanish imkoniyatlari ham ko‘zda tutilgan. Dasturda ilmiylik, aniqlik va amaliyotga yo‘naltirilganlik tamoyillari asosida mustahkam o‘quv rejasi tuzilgan.

Ushbu fan dasturi Malaka talablari asosida yozilgan, o‘quv rejalariga to‘liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi 60530200 – Geografiya yo‘nalishi bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fan dasturni nashr etishga loyiq deb hisoblayman.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU

Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrası dotsenti:

A.X.Ravshanov

